

ISSN:3060-4567 Modern education and development
FITOPATOGEN VIRUSLARNI TABIATDA TARQALISH VA
YUQISH YO'LLARI

Amindjonova Gulmira Karimjonovna

Samarqand davlat veterinariya chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali tayanch doktoranti.

Qurbanboyev Otabek Tolibjon o'g'li

Samarqand davlat veterinariya chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, Biotexnologiya yo'nalishi, 23-20 guruh talabasi

Safarov Muxtor Alijon o'g'li

Samarqand davlat veterinariya chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, Biotexnologiya yo'nalishi, 23-20 guruh talabasi

Amanturdiyev Ilyos Abdulla o'g'li

Samarqand davlat veterinariya chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, Biotexnologiya yo'nalishi, 23-20 guruh talabasi

Annotation: Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, tez sur'atlarda va ko'proq hosil olish uchun bog'dorchilik fermer ho'jaliklari xorijdan serhosil mevali ko'chat navlarini keltirib yetishtirilmoqda. Biroq xorijdan keltirilgan mevali daraxt ko'chatlari o'zлari bilan turli fitopatogenlarni olib kirishi mumkin. Xavfli fitotiya xolatini oldini olish va mamlakatimizda biologik xavfsizlikni ta'minlash eng ustivor vazifadir. Bu esa kasallik qo'zg'atuvchilariga tez va aniq tashxish qo'yish usullari va ekin dalalarga imkon darajasida fitopatogenlardan holi mahsulot yetishtirish uchun optimal ishlab chiqarilgan tavsiyalarga ehtiyoj tug'iladi.

Ushbu maqolada fitopatogen viruslarni tabiatda tarqalishining turli yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Fitovirus, hashorotlar, virusli infeksiya, urug', payvandlash.

Аннотация: В последние годы с целью увеличения объемов производства сельскохозяйственной продукции, получения более быстрого

и большего урожая садоводческие хозяйства завозят из-за границы высокоурожайные сорта саженцев плодовых культур. Однако привезенные из-за границы саженцы плодовых деревьев могут принести с собой различные фитопатогены. Предотвращение опасной фитотальной ситуации и обеспечение биологической безопасности в нашей стране является важнейшей задачей. Это создает необходимость в быстрой и точной диагностике возбудителей болезней и оптимальной выработке рекомендаций для сельскохозяйственных культур по выращиванию сельскохозяйственных культур, максимально свободных от фитопатогенов.

В данной статье описаны различные пути распространения фитопатогенных вирусов в природе.

Ключевые слова: Фитовирус, насекомые, вирусная инфекция, семена, прививка.

Abstract: In recent years, in order to increase the volume of production of agricultural products, to obtain faster and more harvests, horticultural farms have been bringing in high-yielding varieties of fruit seedlings from abroad. However, fruit tree seedlings brought from abroad can bring various phytopathogens with them. Preventing the dangerous phytotia situation and ensuring biological safety in our country is the most important task. This creates a need for quick and accurate diagnosis of disease agents and optimally produced recommendations for crop fields to grow crops free of phytopathogens as much as possible.

This article describes different ways of spreading phytopathogenic viruses in nature.

Key words: Phytovirus, insects, virus infection, seed, grafting.

Kirish. Butun dunyoda qishloq xo‘jaligi o‘simgiliklarini kasallantiradigan qator potyviruslar aniqlangan bo‘lib, ular yetishtirilayotgan mahsulotlarning miqdori va sifatiga salbiy ta’sir etib, katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Qishloq xo‘jaligida o‘simgiliklarni rivojlantirish tobora kuchayib borar ekan, o‘simgiklarga

turli-xil omillar, jumladan mikroorganizmlarning ta'siri ham kuchayib boraveradi. Ayniqsa so'ngi yillarda viruslarning qishloq xo'jaligi o'simliklariga keltirayotgan zarari, ularning tarqalish arealining kengayayotganligi, viruslar juda tez mutatsiyaga uchrab yangi shtammlarni hosil qilayotgani dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda.

O'simlik viruslarini yuqishi xo'jayin-o'simlik va virus turining o'ziga xosligiga bog'liq holda turlicha ekanligi bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan [2]. Gulli o'simliklar hujayrasining mustahkam sellyulozali qobiqlari viruslarning bevosita kirishiga to'siqlik qiladi. Faqatgina hujayra qobig'i shikastlangandagina viruslar sitoplazmaga tushadi va u yerda ko'payadi [vahobov]. Fitopatogen viruslar turli usllar yordamida tarqaladi. Jumladan hashorotlar, shamol, gulchang va urug'lar, payvendlash hamda ildizpoyalar yordamida tarqaladi.

Tadqiqot obe'kti va usullari. Viruslarning hasharotlar yordamida tarqalishi. Ko'pchilik viruslarning tabiatda asosiy tarqatuvchisi hasharotlar ekanligi bir qator mualliflar tomonidan e'tirof etilgan. Hozirgi kungacha viruslarni tarqatishda vektor bo'lib, xizmat qiluvchi 300 dan ortiq hasharot turi mavjudligi aniqlangan. Hasharotlar viruslarni tashishida ularning og'iz apparati muhim faktor bo'lib xizmat qiladi. Bir qator viruslar o'simlik to'qimalarida ko'p miqdorda to'planadi va bular asosan kemiruvchilar, og'iz apparatli hasharotlar yoki ularning voyaga yetmagan lichinkalari orqali yuqishi aniqlangan [5].

Ko'chat yordamida viruslarni tarqalishi. Sog'lom ko'chatlarda o'simliklarning normal o'sishi, rivojlanishi va samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ko'chat materiallarining sifati ko'plab omillarga, birinchi navbatda virus infeksiyasi bilan zararlanmaganligiga bog'liq. Tamaki mozaikasi va pomidor mozaikasi viruslari pomidor urug'ları orqali keng tarqaladi, bundan tashqari, kartoshka X va M viruslari, pepino mozaikasi, bodring mozaikasi, pomidor aspermiya viruslari hamda *Prune dwarf virusi* ham shu tarzda tarqalishi aniqlangan [2].

Viruslarni zamburug'lar yordamida tarqalishi. Zamburug' va viruslar o'rta sidagi munosabatlar to'liq o'rganilmagan, lekin so'nggi vaqtida bir qator viruslar masalan, bir qator sabzavot ekinlarini shu jumladan, pomidorni

kasallantiruvchi tamaki nekrozi virusi zoosporaning yuzasida yoki uning ichida joylashib ildiz orqali sog‘lom o‘simlikka yuqishi mumkinligini aniqlandi [13]. Ayrim izlanuvchilarning tafsilotlaridagi ba’zi farqlarga qaramasdan, ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan olingan ma’lumotlar aslida tamaki nekroz virusi sog‘lom o‘simlikka ildizdagi *Olpidium* sp. zamburug‘i orqali yuqqanligini ko‘rsatdi [6].

Viruslarni urug‘ orqali tarqalishi. Ba‘zi fitoviruslar urug‘lar orqali yuqishi mumkin. Bir qator danak mevali ekinlarning urug‘lari orqali PDV yuqishi ehtimoli turli urug‘lik to‘qimalarda virusni aniqlashning turli usullari yordamida bir necha bor o‘rganilgan. Fitoviruslar O‘rik, shaftoli, gilos va olxo‘ri kabi danak mevalilarda ko‘p hollarda urug‘lari orqali tarqaladi.

Xulosa Fitopatogen vituslar tabiatda turli yo‘llar bilan tarqalishi aniqlangan. Virusli infeksiyalar tarqalishini oldini olish uchun avvalo ularni yuqish yo‘llarini batafsil o‘rganish lozim bo‘ladi. Shuning uchun ham, fitopatogen viruslarning o‘simliklarga ta’sirini kamaytirish va uning tarqalishini oldini olish uchun fitopatogen viruslar xususiyatlarini chuqur o‘rganish va qarshi kurash choralarini ishlab chiqish virusologlar oldidagi dolzarb muommolardan biridir.

Adabiyotlar

1. Amindjonova G.K., Olxo‘ri pakanaligi virusining (PDV) kasallik alomatlari va ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2(12), 2023 149-155 b
2. Amindjonova G.K., Fayziyev V.B. Prune dwarf virusni gilos o‘simligi bargining pigment miqdoriga ta’sirini aniqlash. O‘Z. MU xabarlari, 2024, [3/1/1] 28-31 b
3. Whole Genome Characterization of *Prunus Necrotic Ringspot Virus* and Prune Dwarf Virus Infecting Stone Fruits in Russia. Chirkov, S., Sheveleva, A., Tsygankova, S., Petrova, K. Mitrofanova, I. Horticulturae., 2023, 9(8), 941
4. Файзиев В.Б. Картошка вирусларининг замонавий диагностикаси ва илмий асосланган кураш чоралари, монография Тошкент – 2021